

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2023-yil 2-son

VOLUME 7 / ISSUE 2 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.2.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



**Crossref**  
Content  
Registration

# MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ  
NAZARIYASI VA TARIXI.  
HUQUQIY TA'LIMOTLAR  
TARIXI

- 6 **KARAXODJAEVA DILOROM  
MAMIROVNA**  
А.И. Ишанов – выдающийся узбекский  
ученый-государствовед

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY  
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.  
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 13 **TULTEEV IL'YAS TABASOVICH**  
Конституционализм и наука конституционного  
права: некоторые задачи и перспективы  
развития
- 24 **YULDOSHBEKOV AVAZBEK  
ALISHER O'G'LI**  
**QODIROVA DILDORA IRKINOVNA**  
Xorijiy investitsiya tushunchasining  
nazariy-huquqiy jihatlari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.  
TADBIRKORLIK HUQUQI.  
OILA HUQUQI.  
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 30 **XODJAYEV BAXSHILLO KAMOLOVICH**  
Интеллектуал mulk huquqini boshqarish va  
texnologiyalar transferini davlat tomonidan  
qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-huquqiy  
masalalari
- 38 **XO'JAYEV SHOXJAXON AKMALJON O'G'LI**  
Ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqini himoya  
qilishning o'ziga xos jihatlari
- 49 **SAYDIVALIYEVA XURSHIDA  
XODJIAKBAROVNA**  
Xorijiy davlatlarda oilaviy munosabatlarni  
tartibga solishning o'ziga xos jihatlari va  
oilaviy-huquqiy shartnomalar

12.00.06 – TABIIY RESURLAR  
HUQUQI.  
AGRAR HUQUQ.  
EKOLOGIK HUQUQ

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.  
HUQUQBUZARLIKLARNING  
OLDINI OLISH.  
KRIMINOLOGIYA.  
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

12.00.09 – JINOYAT  
PROTSESSI. KRIMINALISTIKA,  
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA  
SUD EKSPERTIZASI

61 **MURODJOHOVA MOHIRAHOH  
MAKSUDJOH KIZI**

**ИМАМОВА ДИЛФУЗА ИСМАИЛОВНА**

Понятие международного договора  
строительного подряда

70 **USMONOVA MUNISXON YO‘LDOSH QIZI**

Muomala layoqatidagi nuqsonlar va uni  
aniqlashdagi muammolar

81 **ASADOV SHAHRIDDIN FAKHRIDDIN UGLI**

Legal regulation of consulting services

90 **RAJABOV NARIMAN SHARIFBAYEVICH**

O‘zbekistonda vodorod energetikasi sohasi  
qonunchiligini takomillashtirishning ayrim  
masalalari

97 **ХАЙИТОВ ПАНЖИ БУХАРОВИЧ**

Роль и значение объектов и субъектов  
в энергетической безопасности

106 **ISLOMOV BUNYOD OCHILOVICH**

Janubiy Afrika Respublikasi jinoyat  
qonunchiligida jazoni yangillashtirish instituti

122 **UMARXONOV AZIXON  
SHARIPXONOVICH**

Sud bosqichlarida jinoyat protsessi  
ishtirokchilarining xavfsizligini ta‘minlash  
asoslari

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.2./LVNM5827>  
UDC: 349.6(045)(575.1)

## O‘ZBEKISTONDA VODOROD ENERGETIKASI SOHASI QONUNCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI

**Rajabov Nariman Sharifbayevich,**

Toshkent davlat yuridik universiteti Ekologiya huquqi  
kafedrasi professori v.b., yuridik fanlar doktori (DSc)  
ORCID: 0000-0002-5166-964X  
e-mail: n.sh.rajabov.78@gmail.com

**Annotatsiya.** Maqolada vodorod energetikasining mohiyati va ahamiyati, bu boradagi davlatimiz olib borayotgan siyosat, shuningdek, energetika tizimida ushbu energiya manbasining ahamiyati yoritilgan. Mazkur sohani rivojlantirishga oid milliy qonunchilikning hozirgi holati hamda uni takomillashtirish istiqbollariga doir huquqiy masalalar ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan tahlil etilgan hamda bu borada mualliflik takliflari ilgari surilgan. Vodorod energiyasi masalasi yuzasidan eng ilg‘or xorijiy tajriba o‘rganilib, mamlakatimizda uni rivojlantirish hamda bu boradagi amaldagi qonunchilikni takomillashtirishga oid taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, mazkur sohada vodoroddan yonilg‘i sifatida foydalanishni yo‘lga qo‘yishning afzalliklari to‘liq ochib berilgan. Bu esa, o‘z navbatida, ushbu energiya manbasining taraqqiy etishiga zamin yaratadi. Mazkur elementning juda ko‘p miqdorda ishlab chiqarilishi va boshqa uglevodorodlardan ancha qimmat hisoblanishi haqida fikr yuritilgan. Qolaversa, ushbu sohada ekologik masalalarni hal etish zaruratining ahamiyati tadqiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** iqlim o‘zgarishi, vodorod energetikasi, vodorod, ammiak, energetika qonunchiligi, uglevodorod, vodorod yonilg‘isi, ekologik toza mahsulot, rag‘batlantirish, qonunchilik, barqaror rivojlanish.

### НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА В ОБЛАСТИ ВОДОРОДНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Ражабов Нариман Шарифбаевич,**

докт ор юридических наук (DSc),  
и. о. профессора кафедры «Экологическое право»  
Ташкентского государственного  
юридического университета

**Аннотация.** В статье освещаются сущность и значение водородной энергетики, политика нашей страны в этом отношении, а также значение этого источника энергии в энергосистеме. Современное состояние национального законодательства по развитию этой отрасли и правовые вопросы, связанные с перспективами его совершенствования, проанализированы с научно-теоретической точки зрения, выдвинуты авторские предложения. Показательно, что изучен наиболее передовой зарубежный опыт по вопросу водородной энергетики, и в этой связи разработаны предложения и рекомендации по ее развитию и совершенствованию действующего законодательства в нашей стране. Кроме того, выдвигались различные идеи в плане признания ученых в этой области и понимания человечеством преимуществ водородной

энергетики. Также полностью раскрыты преимущества использования водорода в качестве топлива. Это в свою очередь создает основу для развития данного вида источника энергии. В связи с этим суть данной статьи заключается в том, что при производстве данного элемента в больших количествах он считается более дорогим, чем другие углеводороды. Кроме того, была исследована важность решения экологических вопросов в этой области.

**Ключевые слова:** изменение климата, водородная энергетика, водород, аммиак, энергетическое законодательство, водородное топливо, углеводород, экологически чистый продукт, стимулирование, законодательство, устойчивое развитие.

## SOME ISSUES OF IMPROVING THE LEGISLATION OF THE HYDROGEN ENERGY FIELD IN UZBEKISTAN

**Rajabov Nariman Sharifbaevich,**

Tashkent State University of Law, Doctor of Law (DSc)  
Professor of the Department of "Environmental Law"

**Abstract.** *The article describes the nature and importance of hydrogen energy, as well as the policy of our country in this regard and the importance of this energy source in the energy system. Proposals have been put forward. It is significant that the most advanced foreign experience on the issue of hydrogen energy has been studied, and proposals and recommendations have been developed for its development in our country and the improvement of the current legislation in this regard. In addition, various ideas have been put forward in terms of the recognition of scientists in this field and the understanding of the advantages of hydrogen energy by mankind. In addition, the advantages of using hydrogen as a fuel in this area are fully disclosed. This, in turn, creates the basis for the development of this energy source. In this context, the essence of this article is that this element is considered more expensive than other hydrocarbons due to its production in large quantities. In addition, the significance of the need to solve environmental issues in this area has been researched.*

**Keywords:** *climate change, hydrogen energy, hydrogen, ammonia. energy legislation, hydrocarbons, hydrogen fuel, environmentally friendly products, incentives, legislation, sustainable development.*

### Kirish

Olimlarning e'tirof etishicha, insoniyat vodorod energetikasining afzalliklarini bir-muncha ilgari anglab yetgan, ammo undan sanoat sohasida yonilg'i sifatida foydalanish yo'lga qo'yilmaganligi va ushbu energiya manbasining taraqqiy etishiga e'tibor qaratilmayotganligi achinarlidir. Buning asosiy sababi esa mazkur elementning yer yuzida toza holda uchramasligidir. Kimyoviy birikmalardan ajratib olingan vodorod esa qazilma uglevodorodlardan ancha qimmat hisoblanishi tayin.

Vodorodning quyidagi asosiy turlarini e'tirof etish mumkin: "yashil" vodorod – ugleroddan xoli bo'lib, uning asosiy jihati qayta tiklanmaydigan energiya manbalari-

dan foydalanmagan holda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan olingan elektr energiyasi asosida elektroliz yoki boshqa usulda olinadi; "firuza rang" vodorod – asosan past uglerodli hisoblanib, u tabiiy gaz parchalanishi natijasida olinadi; "sariq" vodorod – u ham atom elektr stansiyalarida ishlab chiqiladigan elektr energiyasi yordamida olinadi; "moviy" vodorod – metandan bug' hosil qilish orqali olinadi. U neytral uglerodli bo'lib, karbonat angidridni ushlab orqali yonilg'i hosil qilinadi; "kul rang" va "qo'ng'ir" vodorod – bu yuqori uglerodli hisoblanib, metan yoxud ko'mirning yoqilishi natijasida toza vodorod olinadi. Albatta, ustuvorlik esa qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'lmish shamol, quyosh, suv va uglevodorod-

dan xoli har qanday boshqa manbalar yordamida elektroliz asosida olinadigan “yashil” vodorod hissasiga to‘g‘ri keladi.

Jahonda “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishdagi eng muhim jihat, avvalo, tabiat ne‘matlari iste‘molini qisqartirish, tabiatga zararli ta‘sirlarni yanada kamaytirish hisoblanisa, iqtisodiy jihatdan esa yer osti boyliklarini kelajak avlodlarga qoldirish barobarida ularning kamayib ketishining oldini olishdir.

### **Material va metodlar**

Tadqiqotda vodorod energetikasi bo‘yicha qonunchilik normalari va huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi hamda qiyosiy-huquqiy usul, tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo‘llandi.

### **Tadqiqot natijalari**

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi doiraviy konvensiyasining Parij bitimi (Parij, 2015-yil 12-dekabr) qoidalariga muvofiq, 2020-yildan boshlab atmosferadagi karbonat angidrid miqdorini kamaytirish bo‘yicha choralar belgilandi hamda ushbu bitimga 196 ta a‘zo davlatlar qatorida mamlakatimiz ham bunday majburiyatga ega bo‘ldi [1].

Vodorod energetikasi davlat miqyosida qo‘llab-quvvatlanayotgan mamlakatlar birinchilardan bo‘lib vodorod energiyasiga o‘tish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini dekarbonizatsiya qilish maqsadlarini birlashtirdi, shuningdek, vodorodning energiya tashuvchisi sifatidagi ahamiyatini tan oldi [2]. Bu borada xorij tajribasini o‘rganish orqali mamlakatda ushbu sohani keng miqyosda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, bu borada dunyo mamlakatlari orasida Xitoy Xalq Respublikasi vodorod ishlab chiqarish bo‘yicha eng yetakchi hisoblanib, uning hissasiga butun ishlab chiqariladigan vodorodning salkam chorak qismi to‘g‘ri keladi.

Hozirda vodoroddan avtomobil yonilg‘isi sifatida foydalanishga juda katta e‘tibor qaratilmoqda [3]. Buning natijasida esa ushbu

yonilg‘i turiga asoslangan avtomobillar ishlab chiqarish keng yo‘lga qo‘yila boshladi. Hatto-ki ushbu sohani rivojlantirishni rag‘batlantirish maqsadida 2019-yildan boshlab ushbu mamlakatda ajratiladigan davlat subsidiyalari elektr transport vositalaridan vodorod yonilg‘isiga asoslangan transport vositalariga qayta yo‘naltirildi. Qolaversa, Xitoyning 11 ta hududida vodorodli transport vositalari ishlab chiqarish hamda vodorod yonilg‘isini quyish shoxobchalarini qurish yuzasidan tegishli subsidiya dasturlari qabul qilinib, amalda joriy etila boshladi.

Yaponiya ham bu borada o‘z o‘rniga ega davlatlardan biridir. Chunonchi, mazkur mamlakat vodorod energetikasi sohasida texnologik ishlanmalar bo‘yicha jahon yetakchilaridan hisoblanadi. Qolaversa, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini keng miqyosda karbonsizlashtirish (karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirish) maqsadida vodoroddan foydalanish yuzasidan davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlari qabul qilinib, yaqin 10 yil ichida o‘n million vodorod tizimini yaratish bilan birga vodorod yonilg‘isi asosida jihozlangan transport vositalari uchun o‘n mingta yonilg‘i quyish shoxobchalarini qurish ko‘zda tutilgan [4].

Yevropa Ittifoqi davlatlarida ham bu boradagi ishlar ko‘lami ancha ortib borayotganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Misol uchun, 2020-yilning iyul oyida Yevropa komissiyasi vodorod sohasida ilk strategiyasini e‘lon qildi (Building a hydrogen economy for a climate-neutral Europe) [5]. Shu bilan birga, Ittifoq u yerda toza yoxud sof vodorodni rivojlantirish bo‘yicha o‘z ishini boshlaganligi to‘g‘risida rasmiy bayonot berdi (Clean Hydrogen Alliance) [6]. Shuni alohida qayd etish lozimki, mazkur strategiyada ilk marotaba vodorodning kelib chiqish manbasi yoki ishlab chiqarish usulidan qat‘i nazar, tasnifi keltirilganligi ahamiyatlidir. Shu bilan birga, aniq ustunlik qayta tiklanadigan vodorodga berildi, ya‘ni qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida elektroliz uslubi-

ni qo'llagan holda, "yashil" vodorodni ishlab chiqarish muhimdir.

Yana bir muhim jihati shundaki, Germaniya vodorod bo'yicha Milliy strategiya qabul qilgan holda, unda asosiy e'tiborni qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qo'llagan holda "yashil" vodorodni ishlab chiqarishga qarata boshladi. Albatta, shu bilan birga, transport sohasida vodorod qo'llanishi yuzasidan ham subsidiya siyosatini olib borish rejalashtirilmoqda [7]. Qolaversa, Saudiya Arabistonining "ACWA Power" kompaniyasi ham AQShning "American Air Products" korxonasi bilan hamkorlikda 4 GVt. quvvatga ega bo'lgan "yashil" vodorod hamda ammiak ishlab chiqarish bo'yicha korxonani ishga tushirishni rejalashtirganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hatto dunyoning yetakchi avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonasi "General Motors" ham 2035-yilga borib ugleroddan xoli kompaniya sifatida shakllanishini e'lon qildi. Bu shundan dalolat beradiki, ya'ni kompaniya nafaqat ichki yonuv dvigatelli avtomobillardan voz kechadi, balki mazkur avtomobilsozlik giganti dunyoning barcha zavodlarida faqatgina qayta tiklanuvchi "yashil" energiya manbalaridan foydalanishni yo'lga qo'yadi.

Ma'lumki, mamlakat taraqqiyotining asosiy negizini, avvalo, iste'mol bozori uchun har tomonlama sifatli, raqobatbardosh va ekologik jihatdan toza bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'yish hamda zamon talablariga javob beradigan kam chiqitli yoki chiqindsiz texnologiyalarni samarali joriy qilish tashkil etadi. Davlat tomonidan ushbu sohada bozor talablari asosida e'tirof etiladigan rag'batlantiruvchi omillarning ijobiy qo'llanishi oqibatida "yashil" texnologiyalar samarali tatbiq etilishining ijobiy tomonga o'zgarishiga zamin yaratiladi. Hal qilinishi lozim bo'lgan muhim masala esa jamiyat hayotida ekologik omilni yanada kuchaytirishga qaratilgan vazifalarni amalga oshirishdir [8]. Bu esa, o'z navbatida, insonlarning qulay atrof-muhitga ega bo'lish

huquqini ta'minlashdek muhim konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan huquqiy mexanizmni shakllantirish kabi asosiy maqsadga erishishga sharoit yaratadi. Albatta, ushbu masalalar "yashil" energetika, ayniqsa, vodorod energetikasini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq.

Vodorod energiyani to'plash, saqlash va tashish uchun ishlatilib, hozirda ham undan istiqbolli energiya tashuvchisi sifatida foydalanib kelinmoqda, bu esa atrof tabiiy muhitga turli xil zararli ta'sirlarni kamaytirishga olib keladi. Aslida, vodorodning asosiy afzalliklari – bu undan energiya tashuvchisi sifatida foydalanilganda, karbonat angidrid chiqindilarning umuman yo'qligi hisoblanadi. Qolaversa, vodorod tabiatda juda ko'p va keng tarqalgan kimyoviy element bo'lib, uning zararsiz ravishda yonishidan katta miqdorda energiya ajraladi.

#### **Tadqiqot natijalari tahlili**

O'zbekiston Respublikasi qayta tiklanuvchi energiya manbalari bo'yicha ulkan salohiyatga ega va vodorod energiyasi qo'llanishi yuzasidan istiqbolga ega davlatlar qatorida joy olgan. Shuni alohida qayd etish lozimki, mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbasi sifatida e'tirof etilgan vodorod energetikasi rivojlanishi uchun ilk qadam O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5063-son qarori asosida qo'yilganligi e'tiborga molikdir. Ushbu qarorga ko'ra, Energetika vazirligi huzurida Qayta tiklanuvchi energiya manbalari milliy ilmiy tadqiqot instituti va Vodorod energetikasi ilmiy tadqiqot markazi tashkil etildi. Shuningdek, Fanlar akademiyasining Xalqaro quyosh energiyasi instituti MChJ negizida Energetika vazirligi huzurida Qayta tiklanuvchi energiya manbalari milliy ilmiy tadqiqot instituti hamda institut tuzilmasida Vodorod energetikasi ilmiy tadqiqot markazi va Qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasi tex-

nologiyalarini sinash va sertifikatlash laboratoriyasini tashkil etish to'g'risidagi takliflar ma'qullandi.

Qolaversa, ushbu huquqiy hujjat bilan qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasini rivojlantirish bo'yicha idoralararo komissiya tuzilib, unga qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasini rivojlantirish bo'yicha milliy strategiya va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, shuningdek, ushbu sohalaridagi istiqbolli loyihalar amalga oshirilishini ta'minlash kabi vazifalar yuklatildi.

Bundan tashqari, Vodorod energetikasi ilmiy tadqiqot markazi, qolaversa, mamlakatimizda mazkur masala bo'yicha faoliyat olib borayotgan ilmiy va o'quv muassasalari olimlari tomonidan vodorod energetikasi yo'nalishida amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalar vodorod ishlab chiqarish, saqlash, uzatish va undan energiya zaxirasi sifatida foydalanish texnologiyalarini rivojlantirish, yangi texnologiyalar yaratishga yo'naltirilishi ushbu jarayonlarning arzonlashuviga olib kelishi ahamiyatli ekanligini e'tirof etish mumkin [9].

Yashil energiya – qayta tiklanadigan yoki tugamaydigan energiya manbaini olish, ishlatish va uzatish usullaridan iborat chora-tadbirlar to'plamidir. Ular orasida quyosh va shamol energiyasi eng keng tarqalgan. Hozirgi vaqtda yashil energiyani rivojlantirish zarurati global isish tahdidi, shuningdek, neft bozorida narxlarning keskin o'zgaruvchanligi bilan bog'liq [10, 11]. Vodoroddan foydalanish asnosida elektr energiyasini ishlab chiqarishda ekologik xavfsizlik ta'minlanib, yuqori energiya samaradorlikka erishiladi [12].

Vodorod jahon iqtisodiyotining yangi energiya tashuvchisi hisoblanadi. Shuningdek, investorlar uchun tobora jozibador bo'lib bormoqda, chunki u nafaqat zamonaviy ekologik talablarga javob beradi, balki nol emissiyali energiya manbai hisoblanadi. Ko'pgina ekspert tashkilotlari,

kompaniyalar va ko'pgina mamlakatlar uni qazib olinadigan yonilg'iga uzoq muddatli alternativa sifatida jiddiy ko'rib chiqishni boshladilar. Vodorodning ko'lami juda keng: elektr energiyasini ishlab chiqarishdan tortib transport, isitish va sanoat jarayonlarigacha. Xalqaro energetika agentligi (IEA) XXI asrning oxiriga kelib, transport sohasidagi vodorod yonilg'isi ulushi 25 %ga yetadi, deb hisoblaydi [13].

Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2023–2026-yillarda ilmiy tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan “drayver” innovatsion loyihalar ro'yxatida Fanlar akademiyasining Materialshunoslik instituti tomonidan ishlab chiqilgan “Vodorod energetikasi texnologiyalari va materiallarini ishlab chiqish (vodorod olish, saqlash, uzatish va foydalanish)” deb nomlangan loyiha yo'nalishi zamirida vodorodni sintez qilish, saqlash va transportirovka qilish usullari va materiallari kabi texnologiyani joriy etish bo'yicha vazifalar belgilanganligi ham mazkur masalaning qanchalik dolzarb ahamiyat kasb etayotganligidan dalolat beradi.

Vodorod yuqori energiya intensivligiga ega, bu benzin va neft uchun o'xshash ko'rsatkichdan 3-5 baravar yuqori. Energiya jihatidan unda universal xususiyatlar mavjud. Yuqori energiyali va ekologik toza yonilg'iga bo'lgan ehtiyoj vodorod energiyasining paydo bo'lishiga olib keldi va uning jadal rivojlaniishi vodorod kelajagi uchun yonilg'i ekanligini tasdiqlashga imkon beradi [14].

Qolaversa, ekologik toza energiya zaxirasini yaratishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri, albatta, qayta tiklanadigan manbalar energiyasini vodorod shaklida to'plashdir. Vodorodni energiya tashuvchisi va saqlash vositasi sifatida ishlatish bilan bog'liq muammolar vodorod energetikasi doirasida hal qilinadi. Bu vodorodni energiya maqsadlarida olish, saqlash va undan foydalanish bilan bog'liq barcha masalalarni ko'rib chiqadi [15].

## Xulosalar

Muxtasar qilib aytganda, vodorod energetikasini rivojlantirish sohasini takomillashtirish hamda uning joriy etilishi mamlakatda yashil energiya manbalari samarali ta'minlanishiga zamin yaratadi. Shu maqsadda vodorod energetikasining joriy etilishi, yashil energiya manbalari to'g'risidagi qonunchilik bazasini takomillashtirish, ushbu energiya sohasini rivojlantirish uslublarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Biroq ba'zi mutaxassislar ushbu energiya turining bir nechta salbiy jihatlari mavjudligini e'tirof etishadi, jumladan:

birinchidan – uning yuqori ishlab chiqarish qiymatiga egaligi hamda an'anaviy energiya manbalariga nisbatan uncha raqobatbardosh emasligi;

ikkinchidan – sanoat maqsadlarida foydalanish uchun "kam uglerodli" vodorod ish-

lab chiqarish, vodorodni saqlash va tashish texnologiyalarining yetarli darajada tayyor emasligi, shuningdek, vodorodni tashish va saqlash bo'yicha infratuzilmaning yo'qligi; uchinchidan – vodorod energetikasi obyektlarida sanoat xavfsizligi, sog'liqni saqlash hamda atrof-muhit xavfsizligi masalasining alohida hal qilinishini e'tirof etuvchi normativ-huquqiy bazaning yetarli emasligi yoxud cheklanganligi.

Shuningdek, mamlakatimizda yana bir to'siq shuki, vodorod energetikasini rivojlantirish bo'yicha rag'batlantirish dasturlari rivojlanmagan. Qolaversa, ekologik toza energiya tashuvchisi sifatida mamlakat ichki bozoriga vodorodni rivojlantirish uchun rag'batning yetarli emasligi yoki yo'qligi hamda ushbu sohada malakali kadrlarni yetishtirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

## REFERENCES

1. Parizhskoye soglasheniye soglasno Ramochnoy konventsii OON ob izmenenii klimata [Paris Agreement under the UN Framework Convention on Climate Change]. Available at: [https://unfccc.int/files/meetings/paris\\_nov\\_2015/application/pdf/paris\\_agreement\\_russian\\_.pdf](https://unfccc.int/files/meetings/paris_nov_2015/application/pdf/paris_agreement_russian_.pdf)
2. Faris J. Which Countries Are Backing the Hydrogen Economy? *H2 Bulletin*, 2020, December 29.
3. Tse A. Why «Made in China 2025» Triggered the Wrath of President Trup. *South China Morning Post*, 2018, September 11.
4. Basic Hydrogen Strategy. *Ministerial Council on Renewable Energy, Hydrogen and Related Issues*, 2017, December 26. Available at: <https://policy.asiapacificenergy.org/node/3698/>
5. A Hydrogen Strategy for a Climate-neutral Europe. European Commission. Available at: [https://ec.europa.eu/energy/sites/ener/files/hydrogen\\_strategy.pdf](https://ec.europa.eu/energy/sites/ener/files/hydrogen_strategy.pdf)
6. The European Clean Hydrogen Alliance. European Commission. Available at: [https://ec.europa.eu/growth/industry/policy/european-clean-hydrogen-alliance\\_en/](https://ec.europa.eu/growth/industry/policy/european-clean-hydrogen-alliance_en/)
7. The National Hydrogen Strategy (Germany). Federal Ministry for Economic Affairs and Energy, 2020, 32 p. Available at: [https://www.bmbf.de/files/bmwi\\_Nationale%20Wasserstoffstrategie\\_Eng\\_s01.pdf](https://www.bmbf.de/files/bmwi_Nationale%20Wasserstoffstrategie_Eng_s01.pdf)
8. Rajabov N. Konstitutsionno-pravovaya osnova obespecheniya prava na ekologicheski chistuyu produktsiyu [Constitutional and legal basis for ensuring the right to environmentally friendly products]. *Review of Law Sciences*, 2020, vol. 3, no. Spes. iss., pp. 179–183.
9. Sharifbaevich R. N. Digitalization of Environmental Regulation: Legal Aspects // *American Journal of Social and Humanitarian Research*. – 2022. – T. 3. – №. 6. – C. 374-380.
10. Akbashev I.I. Vyzovy zelenoy energetiki v sovremennykh usloviyakh [Challenges of green energy in modern conditions]. *Vestnik Akademii prava i upravleniya – Bulletin of the Academy of Law and Management*, 2021, vol. 4 (65), pp. 83–90.

11. Rajabov N. Sovremennoye sostoyaniye i perspektivy razvitiya sistemy ekologicheskogo normirovaniya (istoriko-pravovoy analiz) [Current state and development prospects of the environmental regulation system (historical and legal analysis)]. *Review of Law Sciences*, 2020, no. 3, pp. 133–139. DOI: 10.24412/2181-1148-2020-3-133-139/
12. Dosmuxambetov A., Jabagina R.M. Ispolzovaniye vodoroda kak alternativnogo istochnika energii [The use of hydrogen as an alternative energy source]. *Vestnik nauki – Herald of Science*, 2021, vol. 2 (12 (45)), pp. 166–172.
13. Ismatov J.F., Ashirov V.R., Sadullaev M.Kh. Vodorod – toplivo budushhego [Hydrogen is the fuel of the future]. *Dostizheniya nauki i obrazovaniya – Achievements of Science and Education*, 2019, vol. 6 (47), pp. 7–8.
14. Kartamysheva N.S., Kartamysheva Y.S., Biekenova A.S., Perevala M.N. Vodorod – toplivo budushhego? [Hydrogen - the fuel of the future?]. *Molodoy ucheniy – Young Scientist*, 2015, no. 14, pp. 662–666. Available at: <https://moluch.ru/archive/94/21092/>
15. Mkhitaryan N.M., Kudrya S.A., Yassenko L.V., Shinkarenko L.Ya. Sostoyaniye i perspektivy ispolzovaniya vodoroda v vozobnovlyayemoy energetike [State and Prospects of hydrogen use in renewable energy]. *Alternativnaya energetika i ekologiya – Alternative energy and ecology*, 2012, no. 5-6, pp. 68–79.

**YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI**  
**ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК**  
**REVIEW OF LAW SCIENCES**

**Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal**

**Правовой научно-практический журнал**

**Legal scientific-practical journal**

**2023-yil 2-son**

VOLUME 7 / ISSUE 2 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.2.

**BOSH MUHARRIR:**

**Rustambekov Islambek Rustambekovich**

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,  
professor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,  
dotsent

**Mas'ul muharrir:** O. Choriyev

**Muharrirlar:** Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,  
Sh. Yusupova, Y. Mahmudov

**Musahhih:** M. Patillayeva

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.  
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Veb-sayt:** review.tsul.uz

**E-mail:** reviewjournal@tsul.uz

**Obuna indeksi:** 1385.

Jurnal 26.06.2023-yilda tipografiyaga  
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.  
Shartli 17,7 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 36.  
TDYU tipografiyasida chop etildi.